



# Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 yil yanvar– iyun holatiga

## RAQAMLAR:

- Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **1152 taga o'sdi**.
- Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalarining ulushi **11.8 foizga kamaygan**.
- Tugatilgan korxonalar va tashkilotlarga nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni **847 taga oshgan**.


2018 yilning yanvar-iyun oyida viloyatda 1155 ta yaqin korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 372 taga ko'pdir.

Shuningdek faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 19,8 % ga kamaygan hamda ularning soni 308 tani tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 882 ta (9,3 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 10.3 mingtani tashkil etgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Navoiy shahrida (29,5 %), Karmanada (17,3%), Qiziltepa (11,1 %) va Xatirchi (10,3 %) tumanlarida kuzatilmoqda.


## Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda



**Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar  
va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 iyul holatiga)

	Ro'yxatdan o'tgan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlik	jamiga nisbatan %	birlik	jamiga nisbatan %
Navoiy viloyati	<b>10606</b>	<b>100</b>	<b>10351</b>	<b>100</b>
Navoiy shahar	3178	30,0	3056	29,5
Zarafshon shahar	658	6,2	637	6,2
tumanlar:				
Konimex	320	3,0	310	3,0
Qiziltepa	1185	11,2	1154	11,1
Navbahor	925	8,7	909	8,8
Karmana	1812	17,1	1792	17,3
Nurota	872	8,2	859	8,3
Tomdi	187	1,8	179	1,7
Uchquduq	397	3,7	393	3,8
Xatirchi	1072	10,1	1062	10,3


**Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlar va faoliyatsizlarning ulushi, % da**




Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi 97,6 %ni, shu bilan birga jami korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 2,4 % ni tashkil etganligini ko'rsatmoqda va bu ko'rsatkich esa yil boshiga nisbatan taqqoslanganda 6,2 % kamaygan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 19,9 % savdoda, 15,9 % sanoatda, 9,0 % qurilishda, 11,1 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 7,5 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 3,9 % tashish va saqlash, 1,4 % axborot va aloqa, 2,1 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 29,2 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) % da**




**Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda**




2018 yil yanvar-iyun holatiga 1155 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 47,5 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Navoiy shahrida (251 ta), Karmana (166 ta), Nurota (128 ta) va Xatirchi tumanlarida (129 ta) tashkil etilgan. Eng kam Tomdi (23 ta), Konimex (45 ta) hamda Uchquduq (60 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

### Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda



Agar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak eng ko'pi savdoda (170 ta), sanoatda (208 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (193 ta), qurilishda (128 ta) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari (128) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (21 ta), axborot va aloqada (30 ta) hamda tashish va saqlashda (35 ta) tashkil etilganligi kuzatilmoqda.

**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda**





**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda**

	2017 yil yanvar-iyun holatiga	2018 yil yanvar-iyun holatiga
<b>Jami:</b>	<b>783</b>	<b>1155</b>
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	193	193
Sanoat	156	208
Qurilish	62	128
Savdo	139	170
Tashish va saqlash	44	35
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	95	110
Axborot va aloqa	10	30
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	14	21
Boshqa turlari	70	260

## Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari).


2018 yil 1 iyul holatiga 8383 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 3336 ta, oilaviy korxonalar – 615 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 4190 ta, aktsiyadorlik jamiyatlari – 19 tani va boshqalar 223 tani tashkil etadi.

### Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar-xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tashkiliy huquqiy shakllari bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2018 yil 1 iyun holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 71 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 13 taga yoki 22,4 % ga o'sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 50 tasi qo'shma korxonalar, 21 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.




### Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalarning soni, birlikda



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi Navoiy shahar 25 ta (35,2 %), Karmana tumani 21 ta (29,6 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Qiziltepa tumani 5 ta (7,0 %), Nurota tumani 6 ta (8,5 %), Navbahor tumani 4 ta (5,6 %) va Zarafshon shahar 3 ta (4,2 %) hissalariga to'g'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.


### Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining hududlar kesimidagi soni, birlikda



Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 iyul holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 47 ta (66,2 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 9 ta (12,7 %), savdoda 5 ta (7,0 %) hamda boshqa faoliyat turlarida esa 5 ta (7,0 %) tashkil qilgan, eng kamlari esa tashish va saqlashda 3 ta (4,2 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 1 ta (1,4 %) va qurilishda 1 ta (1,4 %) tashkil qilgan. Shundan ko'rinib turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi faoliyat turiga to'g'ri kelarkan. Shuningdek eng kam ulushi esa qurilishda hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda turlariga to'g'ri keladi.




## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



2018 yilning yanvar-iyun oyida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalarning soni 11 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 10 taga ko'paygan.


Bunda, Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 2 ta, Xitoy Xalq Respublikasi-2 ta, Eron Islom Respublikasi-2 ta va Janubiy Koreya Respublikasi– 2 ta yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan.

## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning davlatlar kesimidagi soni, (yanvar-iyun holatiga) birlikda



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoatda 6 ta (54.5%), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 4 ta (36.4%), boshqa turlarda 1 ta (9.1%) xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.


**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda**



## Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 iyul holatiga viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 8307 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 iyul holatiga qaraganda 13,5 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi ya'ni 2574 tasi (31,0 %) Navoiy shahriga, 1542 tasi (18,6 %) Karmana, 928 tasi (11,2 %) Qiziltepa hamda 747 tasi (9,0 %) Xatirchi tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

### Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 8307 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2049 tasi (24,7 %) – savdoda, 1624 tasi (19,5 %) - sanoatda, 931 tasi (11,2 %) - qurilishda, 1104 tasi (13,3 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 780 tasi (9,4 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 395 tasi (4,8 %) - tashish va saqlashda, 138 tasi (1,7 %) - axborot va aloqa sohasida, 158 tasi (1,9 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, shuningdek 1128 tasi (13,5 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yil yanvar-iyun holatiga 991 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 29,5 % ga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Navoiy shahrida (220 ta), Nurota tumanida (128 ta), Karmana tumanida (127 ta) va Zarafshon shahrida (124 ta) tashkil etilgan. Eng kam Uchquduq (47 ta), Konimex (44 ta) hamda Tomdi (20 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi sanoatda (208 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (193 ta) savdoda (170 ta) va qurilishda (128 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa tashish va saqlashda (35 ta), axborot va aloqada (30 ta) hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (21 ta) tashkil etilgan.


## Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi, % da



## Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 iyun holatiga 626 tani tashkil etib, ulardan 615 tasi yoki 98,2 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilninga shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha **39,5** %ga oshganligini ta'kidlash lozim.

### Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarining 21,0 % yoki 129 tasi sanoat, 23,1 % yoki 142 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 19,3 % yoki 119 tasi savdo, 24,1 % yoki 148 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,1 % yoki 7 tasi qurilish, 1,3 % yoki 8 tasi axborot va aloqa, 1,0 % yoki 6 tasi tashish va saqlash, 2,0 % yoki 12 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 7,1 % yoki 44 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Navoiy viloyat statistika boshqarmasi  
 Statistik registrnlarni yuritish bo'limi  
 Nashr uchun mas'ul: **S.Doniyev**  
 (0371) 230-84-56



Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri (KTYDR) ma'lumotlari asosida tayyorlangan